

XOTIRA XAQIDAGI QARASHLAR VA XOTIRANI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Tojiboyeva Nodiraxon Tursunaliyevna

Andijon davlat pedagogika instituti

Pedagogika va psixologiya kafedrasida o‘qituvchisi.

Raximova Dilbaroy G‘ayratbek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Texnologik ta‘lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Maqolada inson xotirasi qanday yo‘llar bilan yaxshilash kerakligini va qanda yo‘llar bilan, rivojlantirish haqida qisqacha ma‘lumot berishga xarakter qilamiz. Komil inson bo‘lib shakillanishda insonga diniy va dunyoviy bilimlar kerak bo‘ladi, bunday ko‘plab bilimlarni olish uchun yaxshi xotira egasi bo‘lmog‘ingiz shartdir.

Kalit so‘zlar: Xotira, tafakkur, diqqat, xis-tuyg‘u, ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotira o‘qituvchisi.

Annotatsiya: Maqolada inson xotirasini qanday yo‘llar bilan, yaxshilashkerakligi va qandayo‘llar bilan, rivojlantirish haqida qisqacha ma‘lumot berishga harakat qilamiz. Komil inson bo‘lib shakillanishda insonga diniy va dunyoviy bilimlar kerak bo‘ladi, bunday ko‘plab bilimlarni olish uchun yaxshi xotira egasi bo‘lmog‘ingiz shartdir.

Kalit so‘zlar: Xotira, tafakkur, diqqat, xis-tulg‘u, ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotira. taraqqiyoti, rivojlanishi, yuksak pog‘analarni zabt etishi uning xotirasi bilanbevosita bog‘liq desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Sechenev aytganidek xotirasiz inson: “abadiyog‘daklik holatida” qolgan bo‘lar edi – degan fikirlari hamda S.I. Rubinshteynning: “Xotirasizdaqiqqa mavjudodlari bo‘lar edik”

Bog‘cha yoshidagi bolalar xotiraning ahamiyati katta o‘rin egallaydi, o‘zlarining faoliyatlari uchun qandaydir ahamiyatga ega bo‘lgan, ularda kuchli taassurot qoldirgan va ularni qiziqtirgan narsalarni beixtiyor eslarida olib qolaveradilar¹. Ular biror narsani eslarida olib qolishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ymaydilar va hali maqsad qo‘yishni uddasidan ham chiqqa olmaydilar. Xotira atrofdagi voqelikni aks ettirish darajalaridan biri sifatida umumiy jarayonlar to‘plamidir va o‘tgan tajribalarni saqlashdir. Xotira odatda eslash deb tushiniladi, inson shaxsiy faoliyatda hayot sharoitini saqlab qolish va keyinchalik takrorlash bu xotiradir. Ushbu aqliy jarayonni

¹Muloqot psixologiyasi o‘quv qo‘llanmasi. Hayot n 2024y.142b.

milloddan avvalgi IV asrda Aristotel o'rganishni boshlagan. Psixologiya, pedagogika, kibernetika, tibbiyot, neyrofizalogiyava biokimy o kabi fanlar orqali xotira shaxs rivojlanishining yaxlitligini taminlashini bilishimiz mumkin bo'ladi.

1 I.M.Sechenov takidlaganidek inson hayotini xotira jarayonisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Har qanday aqliy elementlarni hatto xato bo'lsa ham har bir elementlarni keyingilar bilan "biriktirish" uchun xotira ushlab turadi.²

Bunday "birlashish" xotirasiz rivojlanishi mumkin emas: Barcha aqliy jarayonlarning eng muhim xususiyati – bu xotira. Xotira inson shaxsining yaxlitligini taminlaydi, xotirasiz inson yangi tug'ulgan chaqoloq kabidir. E.S.Rapasevich takidlaganidek "xotira ruhiy hayot birligining zaruriy shartidir, inson uning shaxsiyat birligidir". Xotira orqali odam bilimlarni to'playdi va undan kerakli vaqtda foydalanadi, har qanday mahoratni qobiliyatni shaxs xotirasida mustahkamlanmasdan tasavvuretib bo'lmaydi, harakat usullari, ularning yo'nalishlari xotira ishtirokisiz amalga oshmaydi. Psixologiyada xotiraning quyidagi asosiy turlari ajralib turadi:

1. Yodlash
2. Saqlash
3. Unutish

Reproduktsiya (tan olish tiklash) R.S.Nemov bu jarayonlarni avtonom emas aqliy qobiliyatlar ular faoliyatda shakillanadi va u tomonidan belgilanadi.

3. S.L.Rubinshteyn yodlash haqida shunday deydi: "muayyan materiallarni yodlash bilan hayot jarayonida individual tajriba to'plash bu ong ostida paydo bo'ladigan tasvirlar va taasurotlarni birlashtirish voqealik predmetlar vahodisalarining sezish jarayoniga ta'sir etishi ham bevosita xotiraga bog'liqdir"³

S.L.Rubinshteynning fikricha yodlash jarayonida assotsiativ, sematik va strukturaviy bog'lanishlar muhim ro'l o'ynaydi "eslash – bu ko'proq yoki kamroq onglik satsiyamaqsadida hozirgi vaqtda erishilgan bilimlarni kelajakda amaliy yoki nazariy faoliyatda qo'llashdir" eslash xuddi olingan bilimlarni amaliy yoki nazariy faoliyatda foydalanish uchun chiqarib olish va hozirgi zamonda foydalanishdir. Bu bog'lanishlarda materialning roli asos anamoyon bo'ladi, ammo yodlash nafaqat materialning Obyektiv bog'lanishlariga balki shaxsning u bilan munosabatiga ham bog'liq.

Yodlash – bu xotirada mahkamlash va saqlash jarayoni, voqelik predmetlari va hodisalaridan olingan taasurotlardir. Xotira quyidagicha bo'lishi mumkin: Beixtiyor: bunday holda davom etgan xotirada oldindan belgilangan maqsadni eslab qolish va ixtiyoriy harakatlarimizning davom etishi; Eslash uchun maxsus maqsad va biroz

²Yu.i.Aleksandrov., D.G.Shevchenkov, Psixologiya asoslari Universitet uchun darslik=M.INFA=M, 1997=yil, 367=bet.

³Sadriddinova.T.G.(2023). Kelajak kadrlarini shakllantirishda elektron tarbiya resurslarining ahamiyati. Iqro jurnali 2(1), 750=753.

harakat qilinadi va bu maqsadga erishiladi, belgilarni beixtiyor yod olish uchun majburiy maqsadning yoʻqligi bilan tavsiflanadi. Xususiyatlarini bilan ajralib turadigan obyektlarni esga olinishi osonroq va beixtiyor boʻlishi aniqlangan va majburiy yodlashga nisbatan koʻpharakat qilmasdan davom etadi. Insonning qiziqishlari, muayyan his - tuygʻulari bilan bogʻliq boʻlgan narsalar, tajribalar beixtiyor yod olishning davomiyligiga sezilarli tasir koʻrsatadi.

Oʻz xoxishi bilan yodlash – bu bilan tavsiflangan yodlashdir, ongili ravishda maqsad qoʻyish, muayyan materiyallarni eslab qolish uchun aniq reja tuzadi va boshqa hiyla usullardan foydalanadi maqsadga erishish uchun inson ixtiyoriy harakat qiladi va samarali xotiraga ega boʻladi.

Mexanik yodlash: material va narsalarning orasidagi aloqalarni tushunmagan holda yodlashdir. V.A. Krutetskiyning takidlashicha⁴ bolalar odatda mexanik yoʻl bilan yodlaydi, bolalar odatda oʻquv materiyallarini tushunmaydi yoki uni tushunishni istashmaydi. Maʼnoli (mantiqiy) yodlashning xarakter xususiyati shundaki, shaxsda yodlashga boʻlgan qiziqishning yuqoriligi xotirada mustahkamlangan materialning mohiyati semantikasining ochilishi uning qisimlari oʻrtasidagi mavjud boʻlgan mantiqiy aloqalar mazmunini tushunishga asoslanadi, yodlash va koʻpaytirish, orasida doimiy aloqalar oʻrnatiladi, bu esda qolarli narsalar va hodisalar “ushlab turish” deyiladi.⁴

E.S. Rapatsevich “ushlab turish xotirada oʻrganilgan, yani miyyadagi iz vabogʻlanishlarning saqlanishidir” - deydi⁵. Materialning xotirada saqlanishi uning faoliyatidagi ishtirokiga bogʻliq, chunki, har qanday vaqtda insonning xatti – harakati butun tajribasi bilan belgilanadi.

Unitish- gʻoyib boʻlish, xotirada soʻnish jarayoni va inkor qilish bir xil jarayonning turli xususiyatlarini ifodalaydi. Bogʻcha yoshidagi bolalarda emotsional xotira yaxshi boʻlsa ham, lekin xotiraning bu turi bolalarga nisbatan katta odamlarda kuchliroq boʻladi. Katta odamlar kuchli emotsional taʼsir qilgan bazi narsa va hodisalarni hech vaqt eslaridan chiqarmaydilar. Bogʻcha yoshidagi bolalaresa kuchli emotsional tasir qilgan narsalarni ham bazan eslaridan chiqarib qoʻyishlari mumkin.

Bolalar xotirasini oʻstirishda tarbiyachi va ota-onalarning nutqi ham nihoyatda katta rol oʻynaydi. Bola bilan gaplashilganda nutq sodda, talaffuz aniq va tushunarli boʻlishi kerak. Bu haqda mashhur rus pedagoglaridan K.D. Ushinskiyning quyidagi gaplari juda ham oʻrinlidir.

“Bolaning esida biror narsaning mahkam oʻrnatilgan qolishini xohlovchi pedagog, bola sezgi organlarining mumkin qadar koʻprogʻini koʻzi, qulogʻi, tovush organi,

⁴A.G. Aseev. Rivojlanish psixologiyasi; oʻquv qoʻllanma/A.G. Aseev, Irkutsk DEVELOPMENT=INFORM, 2009 356=bet

⁵L.A. Venger, V.S. Muxina, Gamezo. V.M. Yosh pedagogic psixologiyasi; pedagogika universitetlarning barcha mutaxassisliklari talabalar uchun darslik. M=Maʼrifat, 2008 345=bet.

muskul sezgisi vahatto, agar iloji bo'lsa, hidlash va tam bilish organlarini esda tutib qolish jarayonidaqatnashtirishga harakat qilishi kerak''.

Demak bola xotirasi ustida qancha ko'p va puxta ishlansabolaning maktab ta'limini o'zlashtirishi ham shunchalik oson kechadi. Xotiraning ilk psixologik nazariyalaridan biri XVII asrda yuzaga kelgan⁶, birinchi bo'lib XVIII-XIX asrlarda Angliya va Germaniyada ishlab chiqilgan assotsiativ nazariya hisoblanadi. Ushbu nazariya asosida assotsiatsiya – G.Ebbingauz, G.Myuller, A.Pilseker va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan psixikaning alohida noyob hodisalari o'rtasidagi aloqa tushunchasiyotadi. Bu nazariyaga asosan xotira o'xshashligi, vaqt va fazoviy yaqinligi bo'yicha barqarorbo'lgan qisqa va uzoq muddatli assotsiatsiyalarning murakkab tizimi sifatida tushuniladi. Ushbu nazariyaga binoan, ko'plab qonunlar, xususan, G.Ebbingauzning unutish qonuni kashf etilgan.

Dastlabki soat davomida qabul qilingan ma'lumotning 60% gacha bo'lgan qismi unutiladi, oltikundan so'ng esa birinchi marta yodlab olingan matnning 20% dan kamroq qismi saqlanib qoladi. Vaqt o'tishi bilan assotsiativ nazariya bir qator hal etilishi zarur bo'lgan muammolar bilanto'qnashdi, ulardan asosiysi inson xotirasining tanlab o'tkazish xususiyatini tushuntirib berishedi.[1]

XIX asrning oxirida assotsiativ nazariya geshtalt nazariyasi bilan almashindi. Bu nazariya uchun boshlang' ilk tushuncha va shu bilan birga, asosida xotiraning noyob hodisalarinitushuntirib berish mumkin bo'lgan bosh tamoyil sifatida birlamchi elementlarning assotsiatsiyasiemas, balki, ularning dastlabki, yaxlit tashkiloti – gelshteyn namoyon bo'ldi. Aynan, gelshteyning shakllanish qonunlari ushbu nazariya vakillari (V.Vundt, .B.Titchenerva boshqalar)ning fikriga ko'ra, xotirani belgilab beradi.

Bu nazariya tarafdorlarining asosiy fikri shundan iboratki, esda olib qolish va eslashda ma'lumot, odatda, assotsiativ asosda tarkib topganelementlarning tasodifiy to'plami emas, balki, yaxlit tuzilma sifatida namoyon bo'ladi. Keyinchalik gelshteyn nazariyasi ham qator qiyinchiliklar, xususan, inson xotirasining filogenezva ontogenezda shakllanishi va rivojlanishining murakkab muammosi bilan to'qnash keldi.

Gap shundaki, odamdagi xotira jarayonlarini ajratuvchi motivatsion holatlar va geshtaltlarning o'zlarigham tarafdorlari tomonidan oldindan belgilangan va rivojlanmaydigan hosilalar sifatida qabulqilingan edi. Bu bilan xotira genezisi haqidagi masala ustidagi baxslar o'z nihoyasiga yetdi[2].

Bixevorizm va psixoanaliz vakillari ham xotira genezisi haqida qoniqarli javob topa olmadilar. (D.Uotson, E.Torndayk). Lekin bixeviorizmchilar insondagi ongli faoliyat va shaxsxususiyatlarining yordamga bog'liqligini chetlab o'tdilar. Xotira hodisalarining shaxsga bog'liqligi Z.Freyd tomonidan ko'rsatib o'tilgan edi.[7]

Uning fikriga ko'ra, insonning ong osti mayllariga imkon bermaydigan barcha narsalar xotiradan siqib chiqariladi, va, aksincha, uning uchun yoqimli bo'lganlar saqlanib qoladi. Bu bog' liqlik tajribada o'z tasdig'ini topmadi⁶.

SHu bilan birga, Z.Freyd va izdoshlarining xizmatlari inson xotirasini o'rganishda esda saqlash va unutish xotira jarayonlaridagi ijobiy va salbiy emotsiyalar, motivlar va ehtiyojlarning ahamiyatini aniqlashdan iborat bo'ldi. Hozirgi zamon psixologiyasida asosiy tushuncha o'rnida shaxs faoliyatini uning barchapsixik jarayonlari, shuningdek, xotira jarayonlarining shakllanishini bog'lovchi omil sifatida o'rganadigan nazariya tan olinmoqda. Bu konsepsiyaga asosan, esda olib qolish, saqlash va eslash jarayonlarining kechishi ma'lumotning obekt faoliyatida tutgan o'rniga qarab belgilanadi.

P.Janening ishlari sabab bo'ldi. U birinchilardan bo'lib, xotirani materialni esda olib qolish, qayta ishlash va saqlashga yo'naltirilgan harakatlar tizimi sifatida ta'rifladi. Jahon psixologiyasida bu konsepsiya L.S. Vigotskiy tomonidan ishlab chiqilgan inson oliypsixik vazifalari kelib chiqishining madaniy-tarixiy nazariyasida rivojlantirildi. So'ngra u A.N.Leontev, A.R.Luriya, P.I. Zinchenko, A.A. Smirnov va boshqalar kabi mashhur psixologlar tomonidan ishlab chiqildi. S.L.Rubinshteynning fikriga ko'ra, esda olib qolish amalga oshirilayotgan faoliyatning borishi xususiyatiga bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari, uning fikricha, ixtiyoriy va ixtiyorsiz esda olib qolishning yuqori samaradorligi haqida bir ma'noli xulosa chiqarish mumkin emas.

P.I.Zinchenko, A.A.Smirnovlarning olib borgan tadqiqotlari ma'lum sharoitlarda ixtiyorsiz esda olib qolishning ixtiyoriy esda olib qolishdan samaraliroq bo'lishini isbotladi. Esda olib qolish nerv tizimining, miyaning egiluvchan, ya'ni o'zgaruvchanlik, qo'zg'atuvchilar tasirida o'zidago'yo bir iz tarzida qoldirish, saqlash imkoniyati tufayli yuzaga keladi. Miya egiluvchanligi va tinch pasayishi natijasida xotira samarasini susayishiga, ba'zipaytda odamning toliqishi sabab bo'ladi. Dam olgandan so'ng yana tiklanadi. Odatda miya egiluvchanligi yosh o'tishi bilan susayadi. Masalan: keksa kishilar gaplaridan adashib ketadi. Ilgari gapirgan gaplari esidan chiqib yana o'sha gapni gapiradalar. Muvaqqat nerv aloqalari assotsatsiyalarini hosil qiluvchi fiziologik mexanizmdir. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ayrimdarsliklarda xotira turlari turlicha klassifikasiya qilinadi.

Jumladan, A.V.Petrovskiy tahriri ostida chiqqan "Umumiy psixologiya" darsligida quyidagi klassifikasiya uchraydi: Faoliyatda ko'proq sezilib turadigan psixik faollikning xususiyatiga qarab: harakat, emosional, obrazli va so'z mantiq xotira. Faoliyatning maqsadlariga ko'ra: ixtiyorsiz va ixtiyoriy xotira. Materialni qancha vaqt esda olib qolish va esda saqlash muddatiga ko'ra: qisqa muddatli, uzoq muddatli va operativ xotira. M.G.Davletshin tahriri ostida chiqqan⁷

⁷Turdimuradovich.U.B.(2023)Zamonaviy pedagogikaning tarixiy rivojlanish bosqinchlari .IQRO jurnali 2(1),793=795=betlar.

Umumiy psixologiya o'quv qo'llanmasida quyidagixotira klassifikasiyasi qayd qilinadi:Psixik faolligiga ko'ra: ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotira.Faoliyat maqsadiga ko'ra: harakat, emosional, obraz va so'z-mantiq xotirasi.Muddatiga ko'ra: uzoq muddatli, qisqa muddatli va operativ xotira.E.G'.G'oziev tahriri ostida chiqqan "Umumiy psixologiya" o'quv qo'llanmasida xotiratlari quyidagicha klassifikasiya qilingan.

1. Ruhiiy faoliyatning faolligiga ko'ra:

a) harakat yoki motor harakat xotirasi; b) obrazli xotira; v) his-tuyg'u yoki hissiyot xotirasi;g) so'z-mantiq xotira.

2. Ruhiiy faoliyatning maqsadiga binoan: a) ixtiyorsiz; b) ixtiyoriy; v) mexanik.

3. Ruhiiy faoliyatning davomiyligiga ko'ra:a) qisqa muddatli xotira; b) uzoq muddatli xotira; v) operativ (tezkor) xotira.

4. Ruhiiy faoliyat qo'zqatuvchisining sifatiga ko'ra: a) musiqiy; b) eshitish xotirasi; 5.

Ruhiiy faoliyatning inson yo'nalishiga qarab:a) fenomenal; b) kasbiy.

Foydalanilgan manbalar ro'yxati:

1. Muloqot psixologiyasi O'quv qo'llanmasi Hayot . N 2024y. 142 b
2. Yu.I.Aleksandrov, D. G. Shevchenko.,. Psixologiya asoslari: universitetlar uchun darslik - M .: INFA-M, 1997. - 367 b.
3. L.A.Venger, V.S.Muxina, .Gamezo, M. V. Yosh va pedagogik psixologiya: pedagogika universitetlarining barcha mutaxassisliklari talabalari uchun darslik. . - M.: Ma'rifat, 2008. – 345 b.
4. A. G.Aseev,. Rivojlanish psixologiyasi: o'quv qo'llanma / A. G. Aseev. - Irkutsk: DEVELOPMENT-INFORM, 2009. - 356 p
5. S.X. JALILOVA, N.A. G 'AYIBOVA UMUMIY PSIXODIAGNOSTIKA TOSHKENT 2018 –yil
6. Sadriddinovna, T. G. (2023). KELAJAK KADRLARINI SHAKLLANTIRISHDA ELEKTRON TARBIYA RESURSLARINING AHAMIYATI. IQRO JURNALI, 2(1), 750-753.
7. Akbarjonovich, M. A. (2023). MIGRATSIYA JARAYONINING TAHLILI VA MUAMMOLI JIHATLARI. IQRO JURNALI, 2(1), 628-631.
8. Turdimuradovich, U. B. (2023). ZAMONAVIY PEDAGOGIKANING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI.IQRO JURNALI, 2(1), 793-795
9. Tursunaliyevna. N. T 202